

Fonetika

FONETIKA

1. Fonetika tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'lib yunoncha so'zdan olingan fone- tovush, tika- quti yani tovushlar qutisi ma'nisini ifodalaydi.
2. Og'zaki nutqning tovushlar tizimini o'rganadigan tilshunoslik bo'limiga fonetika deyiladi.
3. Bu bo'limda nutq tovushlari ularning tasnifi, bo'g'in, urg'u, fonetik hodisalar va ularning turlari o'rganiladi.

NUTQ TOVUSHLARI HAQIDA MA'LUMOT

1. Ma'lumki tovushlar 2 xil bo'ladi:
 - a) tabiiy tovushlari
 - b) inson nutq tovushlari
2. Tabiatdagi insondan tashqari paydo bo'lgan barcha tovushlar tabiiy tovushlar deyiladi.
3. Inson nutq a'zolari harakati yordamida ma'lum maqsadda talaffuz qilingan tovushlar esa nutq tovushlari deyiladi.
4. Og'zaki nutqning eng kichik boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydigan qismiga nutq tovushlari deyiladi.
5. Nutq tovushlarining 3 tomoni mavjud.
 - a) **Akustik tomoni**- bunda tovushning balandligi, tezligi, miqdori, kuchi, tembri tushuniladi- **Fizika** fani bilan bog'liq
 - b) **Talaffuz tomoni**- bu **Fiziologiya** bilan bog'liq
 - c) **Vazifaviy tomoni**- bu **Tilshunoslik** bilan aloqador. Shuning uchun lingvistik belgi deb ham nomlanadi.
6. Nutq tovushining asosiy vazifasi so'z ma'nolarini farqlashdir.
M-n: qarz-qars - bunda ma'no farqlash uchun jarangli va jarangsiz undoshlar xizmat qilyapti
7. Nutq tovushlari o'pkadan chiqayotgan havo oqimining og'iz bo'shlig'ida ma'lum bir to'siqqa uchrash uchramasligiga ko'ra ikkiga bo'linadi.
 - a) unli tovushlar
 - b) undosh tovushlar

Unli va Undosh tovushlarga xos xususiyat.

1. Unli tovushlar talaffuz qilinganda o'pkadan chiqayotgan havo hech qanday to'siqqa uchramaydi. Undosh tovushlarni talaffuz qilganda esa havo og'iz bo'shlig'ida yoki bo'g'izda ma'lum bir to'siqqa uchraydi.
2. Unli tovushlarni talaffuz qilganda tovush(un) paychalari ishtirok etadi ya'ni taranglashadi, tebranadi. Undosh tovushlarda tovush paychalari ishtirok etishi ham, etmasligi ham mumkin.
3. Unli tovushlar sof un ya'ni ovozdan iborat bo'ladi, ularda shovqin bo'lmaydi. Undosh tovushlarda esa ovoz va shovqindan yoki faqat shovqindan iborat bo'ladi.
4. Unli tovushlar urg'u qabul qilish xususiyatiga ega. Undosh tovushlar urg'u qabul qilmaydi.
5. Unli tovushlar bog'in hosil qilishda asosiy rol o'ynaydi. Undosh tovushlar bo'g'in hosil qilishda asosiy rol o'ynamaydi, faqat ishtirok etadi xolos.
6. Unli tovushlar cho'zuluvchanlik va musiqaviylik xususiyatiga ega. Undosh tovushlar ega emas.

UNLI TOVUSHLAR TASNIFI

1. Hozirgi o'zbek tilida unli tovushlar 6 ta ya'ni: **a, o, e, o', i, u**
2. Alifbomizda unliharflarni ifodalash uchun 6 ta unli harf mavjud.
3. Unli tovushlar tilshunoslikda 3 tomonlama tasnif qilinadi.
 - a) tilning gorizontol holatiga ko'ra
 - b) tilning verikal holatiga ko'ra
 - c) lablarning ishtirokiga ko'ra

I. TILNING GORIZONTAL(YOTIQ) HOLATIGA KO'RA UNLILAR TASNIFI

1. Unli tovushlar tilning gorizontol holatiga ko'ra 2 xil bo'ladi
 - a) til oldi
 - b) til orqa
2. Til oldi unliharflarni talaffuz qilganda tilning old qismi ko'proq harakatda bo'ladi. Til tishlarga yaqinlashadi. - **i, e, a**
3. Til orqa unliharflari talaffuz qilganda esa aksincha til tishdan uzoqlashib nisbatan orqaga tortiladi. - **u, o', o**

II. TILNING VERTIKAL(TIK) HARAKATIGA KO'RA UNLILAR TASNIFI

1. Unli tovushlar tilning vertical ya'ni tik harakatiga ko'ra yoki og'izning ochilish darajasiga ko'ra 3 ga bo'linadi:
 - a) yuqori ko'tarilish yoki tor unliharflar- **i, u**
 - b) o'rta ko'tarilish yoki o'rta keng unliharflar- **e, o'**
 - c) quyi ko'tarilish yoki keng unliharflar- **a, o**
2. Tor unliharflarni talaffuz qilganda til yuqoriga ko'tarilib tanglayga yaqinlashadi og'iz tor ochiladi.
3. Keng unliharflarni talaffuz qilganda esa aksincha til tanglaydan uzoqlashib pastga tushadi, og'iz keng ochiladi.

III. LABLARNING ISHTIROKIGA KO'RA UNLILAR TASNIFI

1. Unli tovushlar lablarning ishtirokiga ko'ra 2 ga bo'linadi.
 - a) lablangan- **u, o', (o)**
 - b) lablanmagan- **i, e, a**
2. Bu jihatdan **o** unlisi oraliq holatda qoladi.
3. Lablangan unliharflarni talaffuz qilganda lablar oldinga cho'ziladi, chochayadi, doira shakliga kiradi.
4. Lablanmagan unliharflarni talaffuz qilganda esa bunday holat yuzbermaydi.

I	U	Yuqori-tor unliharflar
E	O'	O'rta- o'rta keng unliharflar
A	(O)	Quyi-keng unliharflar
Lablanmagan, til oldi	Lablangan, til orqa	

Unli tovushlarga tasnif

- i**- til oldi, yuqori tor, lablanmagan
- e**- til oldi, o'rta keng, lablanmagan
- a**- til oldi, quyi keng, lablanmagan
- u**- til orqa, yuqori tor, lablangan
- o'**- til orqa, o'rta keng, lablangan
- o**- til orqa, quyi keng, lablangan

UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI

1. Hozirgi o'zbek adabiy tilida undosh tovushlar soni 23 ta deb ko'rsatiladi. (ammo bunda portlovchi j va sirg'aluvchi j(dj) tovushlarining alohida-alohida ekanligi inobatga olinmagan)
2. Alifbomizda undosh tovushlarni ifodalash uchun 23 ta harf mavjud.
3. Undosh tovushlar tilshunoslikda quyidagicha tasnif qilinadi.

a) paydo bo'lish o'rniga ko'ra

b) paydo bo'lish usuliga ko'ra

c) tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra

d) ovozning miqdoriga ko'ra

I. Paydo bo'lish o'rniga ko'ra undoshlar tasnifi

1. Undosh tovushlar paydo bo'lish o'rniga ko'ra 3 ga bo'linadi

a) lab undoshlari-**b,m,p,v,f**

b) til undoshlari-**d,t,z,s,j,sh,dj,ch,n,l,r -y- g,k,ng- q,g',x**

c) bog'iz undoshlari-**h**

2. Talaffuzda lab ishtirok etgan undoshlarga **lab undoshlari** deyiladi.

3. Lab undoshlari o'z ichida 2 ga bo'linadi.

a) lab-lab undoshlari- **b,m,p**

b) lab tish undoshlari- **v,f**

4. **v** undoshi asosan **lab-tish** tovush hisoblanadi – voqea, vaqt avtobus, passiv, aktiv

Ayrim so'zlarda esa **lab-lab** talaffuz qilinishi mumkin- ov, haydov, saylov, o'quvchi, ravshan

5. **f** undoshi olinma(o'zlashma) so'zlarda uchraydi va **lab- tish** talaffuz qilinadi.- tafakkur, farq, furqat, fil. Sanoqli o'zbekcha so'zlarda **lab-lab** talaffuz qilinadi- uf, tuf, puf, ufla, pufla

6. Tilning tish yoki tanglayga tegishidan hosil bo'lgan tovushlar **til undoshlari** deyiladi

7. Til undoshlari tilning qaysi qismi harakatiga ko'ra o'z ichida 4 ga bo'linadi.

a) til oldi undoshlari-**d,t,z,s,j,sh,dj,ch,n,l,r**

b) til o'rta undoshlari – **y**

c) til orqa (sayoz til orqa)- **g,k,ng**

d) chuqur til orqa undoshlari- **q, g', x**

8. O'pkadan chiqayotgan havoning bo'g'izda qisilishidan hosil bo'lgan tovushga **bo'g'iz undoshi** deyiladi.- **h**

9. Undosh tovushlarning ushbu tasnifini qaysi nutq a'zolari ishtirok etishiga ko'ra deb ham berilishi mumkin.

II. Paydo bo'lish usuliga ko'ra undoshlar tasnifi

1. Undoshlar paydo bo'lish(aytilish) usuliga ko'ra 2 ga bo'linadi.

a) portlovchi undoshlar

b) sirg'aluvchi undoshlar

2. Portlovchi undoshlarni talaffuz qilganda nutq a'zolari bir-biriga jipslashadi va havo oqimi ularning orasidan portlab o'tadi.-**b,m,p---d,t,j,ch,n---g,k,ng---q**

3. Sirg'aluvchi undoshlarni talaffuz qilganda nutq a'zolari bir-biriga yaqinlashadi va havo oqimi ular orasidan sirg'alib o'tadi.-**v,f---z,s,dj,sh,l,r,y---g',x**

4. ayrim undosh tovushlar paydo bo'lish usuliga ko'ra alohida xususiyatga ega bo'ladi.

-m,n,ng- burun tovushlari bo'lib bularni talaffuz qilganda havo oqimining bir qismi burun bo'shlig'I orqali o'tadi.

-l- yon tovush bo'lib uni talaffuz qilganda havo oqimi tilning ikki yonidan baravar siqq'alib o'tadi.

-r- titroq tovushi bo'lib uni talaffuz qilganda havo oqimi tasirida tilning uchi titraydi.

-j, ch-qorishiq portlovchilar yoki afrikatlar bo'lib bular asli ikki tovushning qo'shilishidan hosil bo'lgan ya'ni **d+j=j, t+sh=ch**

III. Tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra undoshlar tasnifi

1. Undosh tovushlar tovush paychalarining ishtirokiga ko'ra 2 ga bo'linadi

Tasnif	1	2	3	4	5	6	7	8	Jufti yo'qlari
a) jarangli ovoz+shovqin	b	v	g	d	dj	j	z	g'	m, n, ng, l, r,y- jarangsiz jufti yo'q
b) jarangsiz shovqin+0	p	f	k	t	sh	ch	s	x(q)	q(x),h- jarangli jufti yo'q

IV. Ovozning miqdoriga ko'ra undoshlar tasnifi

1. Undosh tovushlar ovozning miqdoriga ko'ra(ovoz ishtirokiga ko'ra) 2 ga bo'linadi.

a) **sonorlar** – m,n,ng,l,r **-ovoz > shovqin**

b) **shovqinlilar**-b,p,v,f d,t,z,s,j,sh,dj,ch, -y- g,k- q,g',x h **ovoz < shovqin**

2. Shovqinlilar o'z ichida 2 ga bo'linadi

a) jarangli shovqinlilar-**b,v,g,d,dj,j,z,g',y**

b) jarangsiz shovqinlilar-**f,p,k,t,sh,ch,s,q,h,x**

3. jarangli shovqinlilarda shovqin ovozdan ustun bo'ladi.

4. jarangsiz shovqinlilar faqat shovqindan iborat bo'ladi.

BO'G'IN

1. Bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush yoki tovushlar yig'indisiga bo'g'in deyiladi.

2. Bo'g'in adabiyotshunoslikda hijo deb ataladi.

3. Bazan sheriyatda bo'g'in va hijo bir-biriga teng kelmasligi mumkin.

Aziz asrimizning aziz onlari- **11 ta bo'g'in 11 ta hijo**

Aziz odamlardan so'raydi qadrin- **11 ta bo'g'in 11 ta hijo**

Fursat g'animatdir shox satrlarla- **10 ta bo'g'in 11 ta hijo**

Bezamoq chog'idir umrdaftarin-**10 ta bo'g'in 11 ta hijo**

Bunda satr va umr so'zlari bittadan bo'g'in ammo 2 ta hijo sataladi.

4. Bo'g'inning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat

a) Yozuvda bir satrda sig'may qolgan so'zlar keying satrga bo'g'in asosida ko'chiriladi.

b) Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish bo'g'in asosida bo'ladi.

c) Adabiyotshunoslikda vaznlarni o'rganish uchun ham bo'g'inni bilish kerak.

5. O'zbek tilida so'zlar bir bo'g'inli yoki ko'p bo'g'inli bo'lishi mumkin.

- bor, kel, - bir bo'g'inli, ishla, o'qi-2 bo'g'inli

-aytolmaganliklaringizdandirda-11 ta bo'g'in

6. Bo'g'inga ajratish va bo'gin ko'chirish tushunchalarini farqlashimiz kerak.

7. Bo'g'in va uning turlari fonetika bo'limida o'rganiladi. Bo'g'in ko'chirish qoidalari esa orfografiya bo'limida o'rganiladi.

8. Bo'g'inga ajratiladigan ayrim so'zlar bo'g'in ko'chirilmasligi mumkin. M-n: a-ka, u-ka, qal-a kabi so'zlar bo'g'inga ajratiladi ammo satrdan satrgako'chirilmaydi.

9. So'zning bo'g'inlarga ajratilishi bilan o'zak va qo'shimchalarga ajratilishi boshqa-boshqa hodisalardir. M-n: go'shtni, bargga kabi so'zlarga bo'g'inga ajratish bilan o'zak va qo'shimchalarga ajratish teng keladi. Ammo go'shti va bargi kabi so'zlarda esa bo'g'inga ajratish bilan o'zak va qo'shimchalarga ajratish teng emas.

Bo'gimning tasnifi

I. Qanday tovush bilan tugashiga ko'ra bo'g'in 2 ga bo'linadi.

a) **ochiq bo'g'in**- unli tovush bilan tugagan bo'g'in **o-i-la, ko'-cha-da, i-bo-ra**

b) **yopiq bo'g'in**- undosh tovush bilan tugagan bo'g'in **mak-tab, o't-kir, qop-chiq**

1. Shuningdek so'zlarda ochiq va yopiq bo'g'inlar aralash holatda qo'llanishi mumkin. **Pax-ta, sar-ta-rosh-xo-na, tax-ta**

2. Bo'g'in oxirida tutuq belgisining qo'llanishi ahamiyatga ega emas, undan oldingi tovushga qarab bo'g'inning ochiq yoki yopiq ekanligi aniqlanadi. **Sa'va, ma'no, a'lo-ochiq bo'g'in; sur'at, juz'iy, tal'at-yopiq bo'g'in**

II. Tarkibiga ko'ra bo'g'in asosan 5 turga bo'linadi.

a) bir unli iborat bo'g'in- **a-ka, o-i-la**

b) bir unli va bir undoshdan iborat bo'g'in- **bu, ma-na, ol**

c) bir unli va ikki undoshdan iborat bo'g'in- **men, mak-tab, bug'-doy, ost**

d) bir unli va uch undoshdan iborat bo'g'in- **to'rt, stol, do'st**

e) bir unli va to'rt undoshdan iborat bo'g'in- **sport, grand, spirt(faqat ruscha so'zlarda)**

Ba'zan yuqoridagilardan tashqari istisno holatlar ham bo'lishi mumkin-**sprayt**

III. Urg'uga munosabatiga ko'ra bo'g'in 2 ga bo'linadi.

a) urg'uli bo'g'in

b) urg'usiz bo'g'in - **res-pub-li-ka**- 2- bo'g'in urg'uli qolgani urg'usiz bo'g'in

Eslatma: Ayrim darsliklarda qanday tovush bilan boshlanishiga ko'ra 2 ga bo'linadi.

a) berkitilmagan bo'g'in- unli tovush bilan boshlanuvchi bo'g'in

b) berkitilgan bo'g'in- undosh tovush bilan boshlanuvchi bo'g'in

o-i-la-miz- bunda 1,2-bo'g'in berkitilmagan; 3,4-bo'g'in berkitilgan

URG'U

1. So'zdagi bo'g'inlardan birining yoki gapdagi so'zlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishi urg'u deyiladi.

2. Urg'uning 2 asosiy ko'rinishi bor

a) so'z urg'usi

b) gap urg'usi

3. So'z urg'usi so'zdagi bo'g'inlardan biriga tushadi, leksik urg'u deb ham nomlanadi, va fonetika bo'limida o'rganiladi.

4. Gap urg'usi gapdagi so'zlardan biriga tushadi, gap urg'usi-ma'no urg'usi, mantiqiy urg'u, logic urg'u, frazaviy urg'u deb ham nomlanadi, va sintaksisda o'rganiladi.

5. Yozma nutqda gap urg'usini olgan so'z odatda kesmdan oldin joylashadi.

6. Urg'u yordamida nutq ko'rkamlashadi, eshituvchiga yoqimli bo'ladi uni zeriktirmaydi

7. O'zbek tilida urg'u so'zning tarkibida boshqa so'zlardan ajratish hamda so'zning fonetik tarkibini ayushturish vazifasini bajaradi.

So'z urg'usi haqida ma'lumot

1. So'zdagi bo'g'inlardan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishiga so'z urg'usi, leksik urg'u deyiladi.

2. Leksik urg'uning shartli belgisi- (‘)

3. Leksik urg'u o'z tabiatiga ko'ra 2 xil bo'ladi.

a) erkin urg'u

b) turg'un urg'u(bog'liq urg'u)

4. Erkin urg'u so'zning ma'lum bir bo'g'ini bilan bog'liq bo'lmaydi har xil bo'g'inga tushadi.

Rus tillidagi urg'u erkin urg'u sanaladi.- **a'tom, brashu'ra, vodoprovo'd, propaga'nda**

5. Turg'un urg'u so'zning ma'lum bir bo'g'ini bilan bog'liq bo'ladi.-o'zbek tilidagi urg'u turg'un urg'u sanaladi chunki asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

So'z urg'usiga xos xususiyatlar

1.O'zbek tilida leksik urg'uga xos bo'lgan asosiy xususiyatlardan biri shundaki urg'u ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. M: Kelajak, o'quvchi, yumaloq

Ammo urg'u hamma vaqt ham oxirgi bo'g'inga tushavermaydi, M: oppoq, barcha, allakim

2.O'zbek tilida leksik urg'uga xos bo'lgan yana bir xususiyat urg'uning ko'chuvchanligidir, ya'ni so'zga qo'shimcha qo'shilishi bilan urg'u ham keying bo'g'inga ko'chadi. M: Paxta`, paxtako`r, paxtakorlar mi`

Ammo urg'uning ko'chuvchanlik xususiyati hamma vaqt ham saqlanavermaydi, chunki tilimizda urg'u qabul qilmaydigan qo'shimchalar ham mavjud. M: Yigirma`, yigirma`ta, yigirma`tacha

3.O'zbek tilida leksik urg'u ba'zan ma'no farqlash uchun xizmat qiladi.

M: Fi`zik (shaxs oti) - fizi`k (sifat, frazeologik)

Atla`s (mato) – a`tlas (xarita)

Ho`zir (payt ravishi) – hози`r (tayyor, shay)

To`rtma (fe'l) – tortma` (ot)

Yangi` (sifat) – ya`ngi (payt ravishi)

Toza` (sifat) – to`za (daraja miqdor ravishi)

Eti`k (ot, oyoq kiyim) – e`tik (sifat)

Banda` (inson) – ba`nda (to`da guruh)

a)bularning omonim soʻzlar yoki omograflar (yaʼni yozolishi bir xil aytilishi farq qiladigan soʻzlar deb nomlash mumkin)

b)baʼzan paronim soʻzlarda ham maʼno farqlash uchun xizmat qilishi mumkin. M: Aʼmir (farmon) – amiʼr (hukumdor), Aʼzm (qaror) – Aziʼm (katta), aʼhl (aholi) – ahiʼl (inoq), Aʼdl (adolat) - Adiʼl (tik)

AYRIM SOʻZLARNING URGʻUSIGA XOS XUSUSIYATLAR

1. Bir boʻginli soʻzlarda urgʻu odatda boʻlmaydi, chunki urgʻu boʻlishi uchun bir boʻgin boshqalarga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilish kerak, ammo qator undosh bilan tugagan bir boʻginli soʻzlarda urgʻu boʻladi. M: Aʼsr – asiʼr, Aʼzm – Aziʼm kabi soʻzlarda urgʻu boladi, chunki talaffuzda qator undoshlar orasida qisqa unli orttirilishi mumkin.

2. Fonetik usul bilan hosil boʻlgan kuchaytirma urgʻu birinchi boʻgʻinda boʻladi. M: Qiziʼl – qiʼp-qizil, yumaloʻq – yuʼm-yumaloq

3. Alla, har, hech elementlari bilan hosil boʻlgan olmosh va ravishlarda ham urgʻu birinchi boʻgʻinda boʻladi. M: aʼllakim, aʼllamahol, heʼch vaqt, heʼch kim, haʼr qachon, haʼr vaqt

4. Qoʻshma soʻzlar odatda bitta bosh urgʻuga ega boʻladi. M: Kattaqoʻrgʻoʻn, kungaboqaʼr, ertapishaʼr

5. Juft va takroriy soʻzlarda esa har bir component oʻzining alohida urgʻusiga ega boʻladi. M: qozoʻn-tovoʻq, qovuʼn-tarvuʼz, balaʼnd-balaʼnd

URGʻU QABUL QILMAYDIGAN QOʻSHIMCHALAR

1. -ma boʻlishsizlik qoʻshimchasi urgu qabul qilmaydi. M: boʻrma, ishlaʼma, oʻqiʼma

2. Sonning maʼno turlarini hosil qiluvchi -ta, -tacha qoʻshimchalari urgʻu olmaydi. M: oʻnta, beʼshtacha

3. Oʻxshatish maʼnosini bildiruvchi -dek, -day, -cha qoʻshimchalari ham urgʻu qabul qilmaydi. M: shamoʻldek, seʼnday, yigiʼtcha

4. -man, -san, -miz, -siz, (-dir) – shaxs son qoʻshimchalari va bogʻlamalar ham urgʻu qabul qilmaydi. M: oʻqiʼyman, oʻquvchiʼman, oʻqiʼysan, oʻquvchiʼsan, boyliʼkdir. Shaxs son qoʻshimchalari feʼlning munosabat shakllari, chunki feʼl asosiga qoʻshilyapti. Affiks bogʻlamalar ismlarni kesmga xoslovchi shakllar, ismlarning munosabat shakllari hisoblanadi, chunki ism asosiga qoʻshilyapti.

5. Afiks yuklamalari yaʼni -ma, -chi, -oq, -yoq, -a, -ya -u, -yu, -ku, -da, -gina, -dir kabilar ham urgʻu olmaydi. M: oʻqidiʼngmi, seʼn-chi, oʻqigaʼn-ku

6. Rus tili taʼsirida tilimizga kirib kelgan. -ov, -ova, -yev, -yeva, -ovna, -vich kabi shakllar ham urgʻu qabul qilmaydi. Raxiʼmov, Raxiʼmova, Raxiʼmovna

7. Sof koʻmakchilar ham urgʻu qabul qilmaydi. M: seʼn bilan, opaʼm uchun, meʼn kabi bunda urgʻu koʻmakchi bilan birga kelgan mustaqil soʻzning oxirgi boʻgʻiniga tushadi. Seʼn-la, seʼn-ila

ESLATMA:

- larcha qo'shimchasi so'z yasovchi va sonning lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalari hisoblanadi. Bu qo'shimcha urg'u qabul qiladi ammo urg'u qo'shimchaning birinchi bo'g'inida bo'ladi. M: qahramonla`rcha, o'rtoqla`rcha-**so'z yasovchilar**, yuzla`rcha, mingla`rcha-**lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha**

OMONIM QO'SHIMCHALAR VA URG'U

Ma'lumki shakli aytilishi va yozilishi bir xil ammo ma'nolari har xil bo'lgan birliklar omonimlar sanaladi. Tilimizda shunday omonim qo'shimchalar borki ular urg'u olish olmaslik xususiyati bilan farqlanadi. Jumladan:

1. – **ma:**

a) felning bo'lishsizlik shaklini hosil qilganda urg'u qabul qilmaydi- kitob varaqlarini

qatla`ma

b) ot yasovchi yoki sifat yasovchi qo'shimcha bo'lganda urg'u qabul qiladi- oq undan

qatlama`

2. – **cha:**

a) o'xshatish ma'nosini ifodalaganda va daraja miqdor ravishlarini hosil qilganda urg'u qabul qilmaydi.- bu odam **eskicha** fikrlaydi- holat ravishini yasayapti

b) kichraytirish shakli va so'z yasovchi qo'shimcha bo'lganda urg'u qabul qiladi.-uni oqlash uchun **tirnoqcha`** asos yo'q.- daraja miqdor ravishi yasayapti

yoki: qu`shcha-(qush kabi ma'nolarida kelganda –cha urg'usiz qo'shimcha sanaladi)

qushcha`-(kichkina qush ma'nosida kelyapti)

3.-**miz:**

a) afiks bog'lama hamda shaxs son qo'shimchasi bo'lganda urg'u qabul qilmaydi-

o'quvchi`miz, o'qiymiz, yozuvchi`miz

b) egalik qo'shimchasi bo'lganda urg'u qabul qiladi.- opami`z, onami`z, yozuvchimi`z

4.-**siz:**

a) afiks bog'lama hamda shaxs son qo'shimchasi bo'lganda urg'u qabul qilmaydi-

o'quvchi`siz, o'qiysiz, yozuvchi`siz, - Siz dunyodagi eng mehribon insonsiz(afiks bog'lama)

b) inkor shakli va sifat yasovchi qo'shimcha bo'lganda urg'u qabul qiladi.-Insoni`siz jamiyat bo'lmaydi.

5.-**chi,-oq,-a,-da,-gina:**

a) afiks yuklama bo'lganda urg'u qabul qilmaydi

b) – chi, -oq,-a so'z yasovchi qo'shimcha bo'lganda- **urg'u oladi**

- da o'rin payt kelishigi shakli bo'lganda-**urg'u oladi**-Onaning ko'ngli bolada`;Bola bola`-da

- gina erkalash, kichraytirish shakli bo'lganda- **urg'u oladi**-Bolagina`, bola`-gina

6.-**lar:**

a) ko'plik shaklini hosil qilganda urg'u qabul qiladi

-ko'zla`r inson qalbining oynasidir.**gul+la`r**-ot

b) -la fe'l yasovchi va +r safatdosh shakli bo'lganda urg'u qabul qilmaydi.

-chin inson birovga yaxshilik ko'zlar.**gu`l+la+r**-felning sifatdosh shakli

7. **-laring:**

a) felning II shaxs ko'plik sondagi buyruq maylini hosil qilganda hurmatsizlik ma'nosi ifodalanadi va urg'u qabul qilmaydi.

- qo'ylaring

b) Ot so'z turkumiga – lar ko'plik shakli + ing egalik shakli qo'shilganda esa urg'u qabul qiladi. -qo'ylari`ng

ESLATMA:

1. Rus tili ta'sirida paydo bo'lgan so'zlar tarkibida -ik elementi uchraydi bunda:

a) **-ik** bilan tugagan so'zlar sifat turkumiga mansub bo'lsa urg'u oxirgi bo'g'inda bo'ladi.

- akademi`k soat, texni`k

b) **-ik** ot so'z turkumiga mansub bo'lsa oxiridan oldingi bo'g'inga tushadi. –akade`mik

Pavlov ta'limoti o'z ahamiyatini yo'qotgan, te`xnik

2. Ba'zan o'zak shaklidagi so'z bilan ma'lum bir qo'shimchalarni olgan so'z o'zaro omonim bo'lishi hamda urg'u olish olmasligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin.-olma`-ot, o`lma-fe'l

FONETIK HODISALAR

1. Nutq jarayonida turli fonetik hodisalar(tovush o'zgarishlari) yuz berishi mumkin.

2. Fonetik hodisalar unli tovushlarga ham, undosh tovushlarga ham taluqlidir.

3. Fonetik hodisalar asosan talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli yuzaga keladi.

-oq+**gach** = oq**qach**- bunda chuqur til orqa undoshi til orqa undoshiga o'tishi qiyinligi uchun ikkala undosh ham chuqur til orqa talaffuz qilinadi. Yoki stakan, stol kabi ruscha o'zlashma so'zlarda so'z boshida qator undosh kelyapti o'zbek tili uchun bunday holat xos emas shuning uchun talaffuda unli tovush ortiriladi. So'z oxirida go'**sht**,**baxt**, **daraxt**, **barg** kabi qator udosh qo'llangan so'zlar asosan fors-tojik tilidan o'zlashgan talaffuzda qator undoshlarning biri saqlanadi ikkinchisi tushib qoladi.

4. Fonetik hodisalar ko'proq og'zaki nutq talaffuz bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Yozuvda aks etmaydi.

-ilm-----ilim: (tovush ortishi)

-artist---arts: (tovush tushishi)

-Tohir---Toyir (tovush almashinishi)- bu kabi fonetik hodisalar yozuvda aks etmaydi.

5. Ba'zan so'zga qo'shimcha qo'shilganda ayrim tovush o'zgarishlari yuz berishi va yozuvda aks etishi mumkin.

-u+ga= **unga** (tovush ortishi)

-ko'ngil+im=ko'nglim(tovush tushishi)

-eshik+ga= eshik**ka** (tovush almashinishi)

6. Yozuvda aks etadigan bunday tovush o'zgarishlari adabiy mayor sanaladi. Past+ay=pasay-
Adabiy mayor

7. Fonetik hodisalar **tovush almashinishi, tushishi, ortishi** bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

I. TOVUSH ORTISHI BILAN BOG'LIQ FONETIK HODISALAR

1. Tallaffuzda ayrim so'zlar tarkibida tovush ortish hodisasi yuz berishi mumkin.

a) so'z boshida tovush ortishi m-n. rus-**urus**, stol-**ustal**, ro'za-**o**'raza, stakan-**istakan**

b) so'z o'rtasida tovush ortishi m-n. rais-**rayis**, qoida-**qoyida**, aql-**aqil**, hukm-**hukum**

c) so'z oxirida tovush ortishi m-n . tank-**tanka**, bank-**banka**, kiosk-**kioska**

2. Tovush ortishi bilan bog'liq yuqoridagi fonetik hodisalar yozuvda aks etmaydi faqat talaffuz og'zaki nutq bilan bog'liq hisoblanadi.

3. Bazan o'zakka **qo'shimcha qo'shilganda** tovush ortishi xodisasi yuz berishi va yozuvda aks etishi mumkin.

u + ga = **unga**

bu +da = **bunda**

shu + day = **shunday**

obro'+ im = obro'**yim**

ye + ish =yey**ish**

II. TOVUSH TUSHISHI BILAN BOG'LIQ FONETIK HODISALAR

1. Tallaffuzda ayrim so'zlar tarkibida tovush tushishi hodisasi yuz berishi mumkin.

a) so'z boshida tovush tushishi mumkin- **-yiring-iring, yog'och-og'och, yirik-irik**

b) so'z o'rtasida tovush tushishi mumkin- **kelsa-kesa, daraxtzor-daraxzor, dastyor-dasyor**

c) so'z oxirida tovush tushishi mumkin- **go'sht-go'sh, g'isht-g'ish, musht-mush, do'st-do's**

2. Ba'zan ikki so'zning qo'shilishi natijasida ham tovush tushishi mumkin.

M: **-olib kel- obkel-opke, olib bor- obor**

3. Ba'zan so'z tarkibida ikki unli yonma yon kelganda ularning biri kuchsizlashib sezilarsiz holga kelishi 2-si esa cho'ziqroq talaffuz qilinishi mumkin.- **muallim-ma:lim,saodat-so:dat**

4. Tovush tushishi bilan bog'liq yuqoridagi fonetik hodisalar yozuvda aks etmaydi faqat talaffuz og'zaki nutq bilan bog'liq hisoblanadi.

5. Ba'zan so'zga **qo'shimcha qo'shilganda** yoki **2 so'z qo'shilganda** tovushtushish hodisasi yuz berishi va yozuvda aks etishi mumkin.

-ulug'+ ay = ulg'ay, o'yin + a = o'yna, borar emish- borarmish, yoza olmadi-yozolmadi

Bular adabiy mayor sanaladi.

III. TOVUSH ALMASHINISHI BILAN BOG'LIQ FONETIK HODISALAR

1. Tovush almashini yuqoridagilar kabi so'zning turli o'rinlarda bo'lishi mumkin.

a) so'z boshida tovush almashinishi **fabrika-pabrika, fartuk-partuk, faqat-paqat**

b) so'z o'rtasida tovush almashinishi **ibrohim-ibroyim, sohib-soyib**

c) so'z oxirida tovush almashinishi **kitob- kitop, obod-obot**

2. Talaffuzda bazan j-li undosh o'zining jarangsiz jufti bilan almashinishi mumkin, bu hodisa "**jarangsizlashish**" deyiladi. **Maktab-maktap, ozod-ozot, aktiv-aktiv**

3. Talaffuzda yonma-yon kelgan 2 undosh shunchaki o'rin almashtirishi ham mumkin bu hodisa "**metateza**" deyiladi. **-tuproq-turpoq, daryo-dayro, o'xshaydi-o'shxaydi, tebratmoq-terbatmoq.**

4. Ayrim so'zlar borki ular hozirgi adabiy tilimizga metatezaga uchragan ko'rinishda qabul qilingan.- **yomgir** tarixan **yog'mir** shaklida ya'ni o'zagi yog' bo'lgan metatezaga uchrab yomg'ir shaklini olgan.

5. Tovush almashinishi tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida ham yuz berishi mumkin, bunda **assimiliyatsiya** va **dissimilyatsiya** hodisalari yuzaga keladi.

1. Assimiliyatsiya

1. Assimiliyatsiya undosh tovushlarning bir-biriga moslashishi demakdir.

2. Bunda noo'xshash tovush o'xshash tovushga aylanadi. Ktd(t)i

3. Assimiliyatsiya **o'rniga ko'ra** 2 xil bo'ladi:

a) **progressiv assimiliyatsiya**

- Bunda oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga moslashtiradi ya'ni oldingi tovush ta'sirida keyingi tovush o'zgaradi. otd(t)an, aytd(t)i, o'tg(k)an

b) **regressiv assimiliyatsiya**

- Bunda keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi ya'ni keyingi tovush ta'sirida oldingi tovush o'zgaradi. yoz(s)sin, maz(s)kur, yigit(ch)cha, boj(ch)xona

4. Assimiliyatsiya undosh tovushlarning **moslashish darajasiga ko'ra** 2 ga bo'linadi.

a) **to'liq**-ikkalasi bir xil undoshga aylanadi.- yoz(s)sin, otd(t)an

b) **qisman**- ikkalasi biron bir jihati bilan moslashadi- maz(s)kur, boj(ch)xona

5. Assimiliyatsiyada ko'pincha jarangsiz undosh jaranglini o'ziga moslashtirib keladi.

- yoz(s)sin, maz(s)kur, yigit(ch)cha, boj(ch)xona

6. Shuningdek sirg'aluvchi undosh portlovchi undoshni o'ziga moslashtiradi.

-to'q(x)san, oq(x)shom, maq(x)sad

7. Shuningdek bazan lab undoshi til undoshini o'ziga moslashtirib keladi.

- o'n(m)besh, shan(m)ba, yon(m)bosh- n undoshi **b** va **m** undoshidan oldin kelsa **m** tarzida talaffuz qilinadi.

8. Yuqoridagi misollarda assimiliyatsiya hodisasi yozuvda aks etmaydi faqat og'zaki nutq uchun xos. Ba'zan o'zakka **qo'shimcha qo'shilganda** assimiliyatsiya hadisasi yuz berishi mumkin va yozuvda aks etadi.

-eshik +ga= eshikka, chiq+gach=chiqqach, bir+ta=bitta, pastgi-pastki- **Adabiy mayor sanaladi**

2. Dissimilyatsiya

1. Dissimilyatsiya assimilyatsiyaning aksi bo'lib bunda so'zdagi ikki o'xshash bir xil tovushlardan biri noo'xshash boshqa tovushga aylanadi.

2. Dissimilyatsiya ham o'rniga ko'ra ikki xil bo'ladi.

a) progressive dissimilyatsiya- biror(n)ta, zarar(l), halol(r)

Bunda oldingi tovush ta'sirida keying tovush o'zgaradi ya'ni noo'xshash tovushga aylanadi.

b) regressive dissimilyatsiya- kar(l)idor, zar(l)ar

Bunda keying tovush ta'sirida oldingi tovush o'zgaradi ya'ni noo'xshash tovushga aylanadi.

3. Demak assimilyatsiya va dissimilyatsiyaning o'xshash tomoni shundaki ikkalasida ham undosh tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida tovush almashinadi. Farqi shundaki assimilyatsiya bir xillikka intilish natijasida yuzaga keladi, dissimilyatsiya aksincha bir xillikdan qochish natijasida yuzaga keladi.

3. Singarmanizm

1. Singarmanizm hodisasi ohangdoshlik deb ham nomlanadi.
2. Singarmonizm unli tovushlarning o'zaro moslashishi demakdir.
3. Singarmonizm unli tovushlarning bir-biriga ta'siri natijasida yuzaga keladi.
4. Singarmonizmning ko'rinishlaridan biri lab ohangdoshligidir. Bunda so'zning birinchi bo'g'inda kelgan lablangan unli keying bo'g'indagi lablanmagan unlini o'ziga moslashtirib lablangan unliga aylantiradi.

M: muhim, mudir, ko'ngil, tushir kabi so'zlarda singarmonizm hodisasi yo'q bu so'zlar muhim, ko'ngul, mudur, tushur tarzida talaffuzqilinganda singarmonizm yuzaga keladi.

5. Lab singarmonizmi bazan yozuvda aks etishi mumkin.

M: yut+iq= yutuq, yul+iq=yuluq, yum+iq=yumuq, un+im=unum, uy+im=uyum, tuz+im=tuzum

6. Demak singarmonizm bo'lishi uchun so'zdagi unli lablangan yoki lablanmaganligi jihatdan bir-biriga mos bo'lishi kerak.

NUTQ A'ZOLARI HAQIDA MA'LUMOT

1. Nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadigan inson organlariga nutq a'zolari deyiladi.
2. Nutq a'zolariga: o'pka, nafas yo'li, kekkirdak, hiqildoq, bo'g'iz bo'shlig'I, tog'aylar, un paychalari, og'iz bo'shlig'I, kichik til va til, tanglay, tish, lablar, burun bo'shlig'I kiradi.
3. Nutq a'zolari nutq tovushlarini hosil qilishdagi roliga qarab 2 ga bo'linadi.
 - a) aktiv(faol) nutq organlari- un paychalari, til, lablar(pastki jag', kichik til, yumshoq tanglay)
 - b) passiv(nofaol) nutq organlari-o'pka, nafas yo'li, kekkirdak, hiqildoq, bo'g'iz bo'shlig'i, tog'aylar, , og'iz bo'shlig'i, kichik til va , tanglay, tish, burun bo'shlig'i
4. Nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilish jarayonidagi harakat va holatlari **arikulatsiya** deb ataladi.

M: U unlisini talaffuz qilganda til tishlardan uzoqroqqa tortiladi yuqori ko'tarilib tanglayga yaqinlashadi og'iz tor ochiladi, lablar oldiga cho'zilib doira shaklini oladi

ORFOGRAFIYA

1. Orfografiya tilshunoslikning mustaqil bo'limi bo'lib yunoncha so'zdan olingan orfo-to'g'ri, grafos-yozaman degan ma'noni ifodalaydi.
2. Bu bo'lim imlo deb ham nomlanadi. Bu bo'limda yozma nutq meyorlari to'g'ri yozish qoidalari o'rganiladi.
3. Orfografiya adabiy tilning faqat yozma shakli uchun xos.
4. So'zlarni noto'g'ri yozish so'zning yozilishida xatoga yo'l qoo'yish imloviy xato(orfagrafik xato) hisoblanadi.

- Fikir muloxazalarimni qog'ozga tushurishga urindim.- ushbu so'zda 3 ta imloviy xato mavjud

5. Tilimizda mavjud bo'lgan so'zlarni to'g'ri yozilishi imlo lug'ati orqali o'rganiladi. Eng katta imlo lug'atida 65000 ta so'zning to'g'ri yozilishi ko'rsatilgan.

ORFOGRAFIYA PRINSPLARI

1. Tilda mavjud bo'lgan so'zlarning yozilishi orfografiya prinsplari asosida belgilanadi.

2. O'zbek orfografiyasi 3 ta prinsp bilan ish ko'radi.

a) fonetik prinsp (yozuv tamoyili)

b) morfologik prinsp (yozuv tamoyili)

c) shakily prinsp (yozuv tamoyili)

1. Fonetik prinsp (yozuv)

1. Fonetik prinspga asosan o'zak va qo'shimchalar adabiy tilde qanday talaffuz qilinsa imloda ham shunday yoziladi.

2. Bu prinsp o'zak va qo'shimchalarning yozilishida har xillikka yo'l qo'yadi.

3. Bu prinsp imloni jonli talaffuzga yaqinlashtiradi.

4. Fonetik prinsp asosida yozilgan so'zlar tarkibida ma'lum bir tovush o'zgarishlari yuz bergan bo'ladi.

5. Fonetik prinspda tovush o'zgarishlari asosan qo'shimcha qo'shilsa yuz beradi.

- **Shahar+im = shahrim-tovush tushishi**

- **O'yin+a =o'yna- tovush tushishi**

- **Eshik + i = eshigi- tovush almashinishi**

- **Yosh + a = yasha- tovush almashinishi**

- **Ong + la = angla- tovush almashinishi**

- **Shu + day = shunday- tovush ortishi**

- **U + dagi = undagi- tovush ortishi**

- **isi + q =issiq – tovush ikkilanishi**

- **achi+q =achchiq- tovush ikkilanishi**

- **xur + ak = xurrak- tovush ikkilanishi**

6. Tovush o'zgarishlari ya'ni tovush almashinishi, tushishi, ortishi, ikkilanishi fonetik prinspni yuzaga keltiradi. Bunda:

a) o'zakning yozilishida har xillikka yo'l qo'yilishi mumkin- **son + a = sana, buloq +i = bulog'i**

b) qo'shimchanning yozilishida har xillikka yo'l qo'yilishi mumkin.**Buloq+ gacha = buloqqacha**

gur + illa = gurulla

c) kam hollarda ham o'zak ham qo'shimcha yozilishida har xillikka yo'l qo'yilishi mumkin.

Buyir+iq = buyruq, kichik+ gina = kichkina

Bunday holat ko'proq o'zakka birdan ortiq qo'shimcha qo'shilganda yuz beradi.

Ot +a+v=atov Qiyin+a+q+i= qiynog'i

7. Ba'zan ikki so'z qo'shilishi natijasida ayrim tovush o'zgarishlari yuz berishi va yozuvda aks etishi mumkin bunday holat ham fonetik prinspni yuzaga keltiradi. **borar + emish= borarmish**

Ayta+ber = aytaver

8. Xulosa qilib aytganda tovush o'zgarishlari fonetik prinspning asosini tashkil qiladi.

2. Morfologik prinsp

1. Morfologik prinsp orfografiyaning asosiy va yetakchi prinspi hisoblanadi.

2. Bu prinspga asosan o'zak va qo'shimchalar qanday talaffuz qilinishidan qat'iy nazar mayor deb tanlangan shaklga muvofiq yoziladi.

- ayt+di= **talaffuzda** aytti **yozuvida** aytdi, tuz+sin = **talaffuzda** tussin **yozuvida** tuzsin

- shanba= **talaffuzda** shamba **yozuvida** shanba, maqsad= **talaffuzda** maxsad **yozuvida** maqsad

3. Quyidagi birliklar ham morfologik prinsp asosida yuzaga keladi.

a) qo'shma so'zlar – uchburchak, tezoqar, belbog'

b) juft so'zlar- aka-singil, katta-kichik, yaxshi- yomon

c) takroriy so'zlar- xirmon-xirmon, takror-takror, qonib-qonib

d) fonetik usul bilan hosil bo'lgan kuchaytirma sifatlar- qipqizil

4. Demak fonetik prinsp o'zak va qo'shimchalarning yozilishida har xillikka yo'l qo'ysa, morfologik prinsp o'zak va qo'shimchalarning yozilishida bir xillikni ta'minlaydi.

3. Shakliy prinsp

1. Bu prinsp oily ta'limda etimologik yoki grafik prinsp deb ham ataladi.

2. Bu prinspga asosan boshqa tildan o'zlashgan so'zlar o'sha tilde qanday yozilsa o'zbek imlosida ham shunday yoziladi.

- teatr, okean, kino, klip, biologiya, video, telefon

FARQLASH TAMOYILI (DIFERENSIAL PRINSP)

1. Bu prinspga asosan shakli aytilishi va yozilishi o'xshash ammo ma'nolari har xil bo'lgan birliklar imlodan farqlab qo'llanishi kerak.

- yuvindi(**fe'l**)-**marfologik prinsp**, yuvindi-(**ot**)-**fonetik prinsp**,

2. Bular paronim so'zlar bularni imlodan farqlab qo'llash kerak shuning uchun diferensial prinsp hisoblanadi.

3. Farqlash tamoyiliga rioya qilmaslik ya'ni o'xshash birliklarni imlodan farqlamaslik uslubiy xatoga olib keladi.

- Ot chopsa gumburlar tog'ning darrasi.-uslubiy xato

- Ko'chadan g'ijjak, doira, tambur ko'targan kishilar o'tishdi.

4. O'xshash birliklarni farqlab qo'llash diferensial prinspning asosi hisoblanadi.